

**TINGLAB TUSHUNISHNI O'RGATISH MASHQLARI**  
**LISTENING TRAINING EXERCISES**  
**ТРЕНИРОВОЧНЫЕ УПРАЖНЕНИЯ ПО АУДИРОВАНИЮ**  
**Mirhaydarova Zulfizar Bayramali qizi**  
Farg'ona davlat universiteti talabasi  
[zulfizar2307@gmail.com](mailto:zulfizar2307@gmail.com)

**Annotatsiya:** Har qanday tilni o'rganishda muhim bo'lgan to'rtta qobiliyatlar orasida tinglab tushunish ham asosiy o'rinn tutadi. Odatda til o'rgatish va o'rganish sohasida tilda gapirish va yozishga asosiy tildan foydalanish omili sifatida qaraladi. Tinglash va o'qish qobiliyatlari esa ikkinchi o'rinda turadi. Buning bir sababi tinglash qobiliyatini o'zlashtirishning biroz qiyinligi bo'lishi mumkin. Ammo tinglab tushunishni ham IT texnologiyasi yoyilgandan so'ng lingafon sinflarda turli materiallar orqali o'tish vaziyatni ancha yengillashtirdi.

**Kalit so'zlar:** Chet tilli, tinglab tushunish, nutq faoliyati, akademik tinglash, qiyinchiliklar.

**Аннотация:** Среди четырех навыков, которые важны при изучении любого языка, понимание на слух является основным. При преподавании и изучении языка разговорная и письменная речь обычно рассматривается как фактор основного использования языка. Навыки аудирования и чтения стоят на втором месте. Одной из причин этого может быть сложность овладения навыками аудирования. Однако после распространения информационных технологий аудирование и понимание стало проще благодаря использованию различных материалов на языковых занятиях.

**Ключевые слова:** Иностранный язык, понимание на слух, речевая деятельность, академическое аудирование, трудности.

**Abstract:** Among the four skills that are important in learning any language, listening comprehension is the main one. In language teaching and learning, speaking and writing a language is usually considered as a factor of primary language use. Listening and reading skills come second. One of the reasons for this may be the

difficulty of mastering listening skills. However, after the spread of IT technology, listening and understanding has been made easier by using different materials in language classes.

**Key words:** Foreign language, listening comprehension, speech activity, academic listening, difficulties.

Nutq faoliyatining asosiy turlaridan sanalmish tinglab tushunish ham bilishga intilishdir. Har qanday bilish jarayonining esa hissiy va mantiqiy tomonlari mavjud. Tinglab tushinishda mazkur sifatlar uzviy bog‘liq holda amal qiladi. Tinglab tushunishning mexanizmlari majmuyi fanda yetarlicha o‘rganilgan. Birinchi mexanizmni ruhshunoslar nutqni idrok etish, deb nomlaganlar. Muayyan sezgilar qo‘zg‘alishi nazarda tutiladi. Begona tilni bilmagan kishi uni tushunmaydi ham, balki bu tildagi nutqni eshitish qobiliyatidan ham mahrum (mashhur ruhshunos olim marhum akad. Aleksandr Romanovich Luriya tadqiqotlari shunday xulosani tasdiqlagan). Ushbu mexanizm eshitish xotirasi mexanizmi bilan chambarchas bog‘liq. Idrok qilish chog‘ida nutqiy parchani yodda saqlash audiomatnni tushuna olish imkonini yaratadi.

Tinglash ko‘nikmalarini o‘rgatishning zamонавиy samarali usullari hamma narsani o‘z ichiga oladi masalan interaktiv mashqlardan multimedia resurslarigacha. Tinglash qobiliyati eng yaxshi o‘rganishi mumkin bo’lgan qobiliyat sanaladi. Chunki o‘rganishga birozgina ko‘proq e’tibor qaratilsa u oddiy va qiziqarli tadbirlar orqali yaxshilandi va yakunida yaxshi natijalarga olib keladi. Bu holatda siz kichik yoki katta talabalar guruhlari bilan ishlappingiz muhim emas, siz o‘zingizni rivojlantirish uchun quyidagi usullardan birini qo’llasangiz bas. Talabalarga tinglash qobiliyatini o‘rgatishning foydali usuliga bundan tashqari oddiy guruh faoliyati ham yaxshi misol bo’la oladi. Birinchi mashg’ulot uchun talabalar besh yoki undan ko‘p guruhlarga bo’linadi va ularga bir qiziqish yoki kamida ikkita boshqa sevimli mashg’ulotni o‘rganishni buyurishingiz kerak. Bunda talabalarga aniqlovchi savollar berish kerak. Faoliyat davomida va siz ularga eslatma olishlariga ruxsat berishingiz mumkin, chunki bu foydalidir. Faoliyatning ikkinchi qismi - bu talabalarga katta guruhdada

o'tirishga ruxsat berishdur. Masalan ular o'zлari bilan yuzma-yuz kelgan guruh a'zosining ismi va ularning qiziqish hobbilari haqida muloqot qilishsin. Bu ikki faoliyat ham tinglashning samarali o'sishiga olib keladi.

Nutq faoliyati turlarining har biriga xos qiyinchiliklar mavjud. Tinglab tushunishda sodir bo'ladigan qiyinchiliklar birtalay. Ularni bilish chet til o'rgatishda hal qiluvchi shartlardandir. Idrok etish, jumladan nutqni idrok etib tushunish muammolari jahon ruhshunosligida ancha mufassal ishlab chiqilgan. Chet til o'qitish metodikasi fani mavjud nazariy mulohazalardan samarali foydalanadi. Maktab sharoitida o'quvchilaming tinglab tushunishi sohasidagi qiyinchiliklar quyidagilardan iborat:

1. Tilga oid sh akliy qiyinchiliklar. Ma'nosi har xil, tovush shakli esa o'xshash so'zлami (omofonlami) yoki chet til fe'lining majhul darajasini tinglash va tushunish murakkablik kasb etadi. Omofon va majhul fe'l bir qarashda tanishga o'xshaydi, biroq audiomatnning mazmunini payqashda xiyla qiyinchilik tug'diradi.
2. Mazmunga doir qiyinchiliklar. Olinayotgan axborot qamrovidagi nima, qayerda, kim bilan, qachon bo'lishi kabi dalillami idrok etish bobida yoki ular orasidagi bog'lanishni ilg'ab olish, shuningdek, umumiyl g'oyaga taalluqli qiyinchiliklar mavjuddir.
3. Nutqiy idrok qilishning shart-sharoitidagi qiyinchiliklar. Bulardan nutq tezligi, ohangi va mexanik yozilgan audiomatnning murakkabligini eslatish kifoya. Shu bilan birga audiomatnni bir marta idrok etish, notanish odamni tinglash, ovozdagi o'ziga xoslik kabilar ham tushunishda g'ov bo'lishi tabiiy,
4. Nutq shakliga oid qiyinchiliklar. Dialog nutqda javob qaytarish, monologni tinglashda esa uzun jumlalami eshitishxotirasida saqlash o'quvchi uchun muayyan qiyinchilik keltirib chiqaradi.

5. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan sodir bo'ladigan qiyinchiliklar. Ular lisoniy — leksik, grammatik va fonetik qiyinchilik deb ataladi. Leksikada juft tushunchalar (mas. dunyo tomonlarini ifodalovchi so'zlar), ko'p ma'nolilik (pohsemya), turg'un birikmalardagi so'z ma'nosi, yordamchi so'zlar, grammatik jihatdan ona tilida yo'q

hodisalar yoki fonetik tarafdan so‘zning yozuvda va talaffuzda keskin tafovuti, urg‘u va ohangning o‘xshamasligi tegishh qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi.

Eshitish sezgisiga kelayotgan signallarni xotirada qoliplangan andazaga solishtirish mexanizmi. Solishtirish shaxsnинг avvalgi tajribasiga, uning sezgi va hissiyotiga qarab to‘g‘rinoto‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Tinglovchi tajribasi deganda, eshitish va nutqharakat sezgilari miyada hosil qilgan iz tushuniladi. Solishtirish oqibatida tanib olishga muvaffaq bo‘linadi. Eshituvdan qolgan iz mustahkam bo‘lsa, tanib olish mexanizmi (solishtirish va bilib olish mexanizmi deyilgani afzalroq) faolroq amal qiladi. Eshitilayotgan hodisaning to‘liq aksi miyada saqlanmaydi yoki tiklanmaydi, uning izi tushadi, xolos. Navbatdagi mexanizmning nomi antisipatsiya deb ataladi. Soddarоq qilib, oldindan fahmlash deyish ma’qul. Bu mexanizm ishga tushganda, audiomatnning tuzilishi (jumlalar yoki so‘zlar shakli)ni yoki uning mazmunini oldindan bilib olish imkoniyati yaratiladi.

Yana bir mexanizm audiomatnni mantiqan tushunish deyiladi. Miya faoliyatining analitik-sintetik amali asosida va boshqa imkoniyatlar doirasida anglash, ya’ni mantiqan tushunish ro‘y beradi. Mazkur mexanizmlarni shakl toptirish oqibatida o‘quvchilarning tinglab tushunish malakasi hosil qilinadi. Tinglab tushunish malakasi chet tilda zaruriy mashqlami bajarish tufayligina shakllanadi va rivojlanadi. Ta’rif-tavsif etilgan tinglab tushunishning psixofiziologik mexanizmlari tahlil uchungina ayrim nomlar bilan ataladi. Nutq faoliyatida esa ular yaxlitlikda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Великанова А. В. Компетентностно-ориентированный поход к образованию / А. В. Великанова // Серия «Компетентностно-ориентированный поход к образованию». – Вып. 2 – Самара : Профи, 2002. – С. 92
2. Bekmurodova.U.B. “Ingliz tilini o’qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat., Toshkent 2012-yil.

3. N.Q.Xatamova, M.N. Mirzayeva. “INGLIZ TILI DARSLARIDA QO’LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR” (uslubiy qo’llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.
4. Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials on english lessons. Academic research in educational sciences, 2